

Ona yurting - oltin beshiging


# TONG Yulduzi

№24 (66357)  
2002 yil  
10 iyun,  
dushanba  
Sotuvda  
erkin narxda

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiga boshlagan.

## DO'STLARIM SONI KO'PAYSА DEYMAN



Dugonam Kristinaning maqolasi «Tong yulduzi»ga chiqqan kun uning uchun haqiqiy bayram bo'ldi. Gazetani ko'tarib olib, hammamizga ko'rsatib

Belorusdan qo'sh maktub

chiqdi. Yana hecham tutilmay maqolasini o'zi o'qib berdi. Unga juda havasim keldi. Chunki O'zbekiston men uchun ham ardoqli, qadrli. Kristinadan gazeta manzilini olib, xat yozishga qaror qildim. Mening do'stlarim juda ko'p. Lekin ularning safi yanada kengayishini istayman. O'zbekistonlik tengdoshlarim bilan ham do'stlashsam, xat yozishsam deyman. Kristina bu jannatmakon yurt haqida gapirib bergen. Lekin men yanada ko'proq narsalarni bilgim keladi. O'z navbatida men ham ularga Belorus yurti haqida, do'stlarim haqida hikoya qillardim...

Xatlaringizni kutib qolaman.

Kristina VERYOVKINA,

31 - maktabning 4 - sinf o'quvchisi.

O'tgan yili mamlakatimizda bolalar manfaatini himoya qilish maqsadida milliy alyans tashkil etilgan edi.

Poytaxtimizning «Interkontinental» mehmonxonasida 1 iyun kuni ana shu alyansning kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda O'zbekiston Respublikasi Bosh Vazirining o'rindosari Dilbar G'ulomova, Respublika «Bolalar»

## MENING VATANIM - TOSHKENT!

Yaqinda oyijonim meni Minsk shahrida bo'lib o'tgan yulduzlar ijrosidagi «Oltin shlyager» deb nomlangan qo'shiqlar festivaliga olib bordilar. Unda juda ko'plab mamlakatlardan kelgan taniqli qo'shiqchilar qatnashdilar. Qo'shiq aytish navbati o'zbekistonlik xonanda Larisa Moskalyova kelganda, hayajondan o'rnimdan turib ketdim. Chunki men o'zim belorus farzandi bo'lsam-da, Toshkentda, Mirzo Ulug'bek tumanida tug'ilganman. Shuning uchun ham bu yurtni juda sog'inaman, qo'msayman.

- Oyijon, Toshkentni sog'inib ketyapman, -desam, oyim: «Toshkent juda ajoyib shahar. Lekin Belorus ham yomon emas. Bu yer axir bizning Vatanimiz-ku» deydilar.

Oyimning gaplarida jon bor. Ammo mening uchun kindik qonim to'kilgan qadrdon Toshkentim - Vatanimdir. Shundanmi, u doimo o'z bag'riga chorlayveradi. O'zbekona mahallam, do'stu dugonalarim



tushlarimga ham kirib chiqishadi...

Festival yakunida g'oliblarni e'lom qilishdi. Buni qarangki, shuncha yulduzlar orasidan mening hamyurtim Larisa Moskalyova 1 - o'rinn sohibi deb topilib, «Oltin shlyager» nomli gran-prini qo'lga kiritdi. Men esa ko'zlarimda yosh bilan uni olqishladim.

Kristina MOLASHENKA,  
Mogilyov viloyati, Bobruysk  
shahridagi 1 - maktabning  
3 - sinf o'quvchisi.

## BOLALARGA «HA» DENG!

jamg'armasi, BMT hamda halqaro tashkilotlarining vakillari ishtirok etdilar. Yig'ilish 8-10 may kunlari Nyu-Yorkda bolalar manfaatlarini himoya qilish maqsadida o'tkazilgan maxsus sessiya hamda Bishkekda uyushtirilgan Bayrami taassurotlari

Bolalar forumi natijalarini o'r ganishga bag'ishlandi.

Sessiya da O'zbekistonda «Bolalarga «Ha» deng!» shiori ostida o'tkazilgan tadbirda ishtirok etgan aholining 3 millionga yaqini chaqiriqni yoqlab ovoz berganliklari, bolalar

manfaatini muhofaza qilish yo'lida faol kurashga tayyor ekanliklarini bildirganlari ma'lum qilindi. «Tomosha» guruhi qatnashchilarining quvnoq chiqishlari, qo'shiq va raqlari bilan yakunlangan anjuman ishtirokchilarida katta taassurot qoldirdi.

Zulfizar SODIQOVA,  
Poytaxtdagi 243 - maktabning  
8 - «A» sinf o'quvchisi.

## Mustaqil yurt bolalari - iqtidorlidir

Buxoro azal-azaldan donishman dilar, bilimdonlar yurti hisoblangan. Hozirgi kunda ham Buxoroda iqtidorli, bilimga chanqoq yoshlar ko'plab topiladi. Ular ota-bobolari qoldirgan nodir kitoblarni mutolaa qilishdan sira charchamaydilar,

*qildik,- deydi «Bolalar va o'smirlar tarbiyaviy ishlar markazi» rahbari Rajab aka Avezov.*

*- Biroq o'quvchilarining soni biz kutgandan ham yuqori bo'ldi. Shunda iqtidorlilar orasidan ham eng*

*45- maktabning 10- sinf o'quvchisi Akmal Abdullayev bo'lsa, «Zafar» guruhining sardori 61-maktabning 9- sinf o'quvchisi Lazizbek Mirzajonovdir. «Do'stlik» da 46- maktabning 10- sinf*

*o'tkazishlari bizni quvontiradi.*

Klubga nafaqat bolalar, balki o'qituvchilar ham qiziqib, savol-javoblarda faol qatnashmoqdalar. Klubga a'zo bo'limgan o'quvchilar ham «Ziyo» intellektual o'yinini diqqat bilan kuzatmoqdalar. Bu bilan o'z bilimlarini



hunar o'rganishdan zerikmaydilar.

Buni G'ijduvon tumanidagi «Bolalar va o'smirlar tarbiyaviy ishlar markazi»da tashkil etilgan to'garak a'zolarining timilsiz harakatlari da kuzatishimiz mumkin.

Markaz 1997 yilda tashkil etilgan. Ayni kunda to'ri yo'naliш bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan 45 ta to'garakka 1700 dan ziyod o'g'il-qizlar jalb qilingan.

Bundan tashqari klublarda ham ish qizg'in. Jumladan, «Ziyo» bilimdonlar klubiga qiziquvchilarining soni kundan-kunga ortib bormoqda.

«Ziyo» hali bir yoshga ham to'lmadi. Ammo klub ishi bilimdonlar orasida ancha shov-shuvga sabab bo'lyapti.

Dastlab klubga atrofdagi 1-, 5-, 35-, 45-, 61- maktablarning eng a'lochi, bilimdon o'quvchilarini taklif

*iqtidorlilarini saraladik.*

*O'quvchilarini imtihon qilib, sinovdan o'tkazdik. Savol-javoblardan qoniqarli o'tgan 24 nafar o'g'il-qizlarni «Ziyo» klubiga qabul qildik.*

*«Ziyo» intellektual o'yin bo'lib, unda bolalar ancha murakkab savollarga javob berishlariga to'g'ri keladi. Bunday savollarga javob topish uchun faqatgina darsliklarnigina o'qib borish kamlik qiladi.*

*Ayni kunda klub to'rt guruhga bo'lingan. Har bir guruhda olti nafar bilimdon o'g'il-qizlar o'zaro kuch sinashadi.*

*«Umid» guruhi sardori*

*o'quvchisi Elyor Ismoilov guruhi g'oliblik uchun kurashsa, «Diyor» da 61-*

oshiryaptilar.

«Ziyo» ga qiziquvchilarining bo'sh vaqtleri asosan kitob o'qish, o'rganish, izlanish bilan o'tayapti.

O'quvchilarining bo'sh vaqtlarini unumli, mazmunli o'tishiga o'z hissasi ni

qo'shayotgan ustozlarga qarata hormang, degimiz keladi. Oramizda shunday fidoyi insonlar bor ekan,



*maktabning 9- sinf o'quvchisi Shereli Bafoyevning guruhi bo'sh kelmaydi. Guruhlardagi yigit-qizlar juda bilimdon. Ularning izlanishlari, bo'sh vaqtlarini kutubxonalarda*

iqtidorli, bilimga chanqoq o'quvchilar ko'payaveradi.

Feruza SOYIBJON qizi.

# Assalom Mu'stakil bayot!

Aziz bolajonlar, orangizda bayram va tantanalarni yaxshi ko'rmaydigan, ularda zavqu shavqqa to'lib, dildan yayramaydiganlar topilmasa kerak-a?

Chirchiq shahridagi 23-yordamchi mактабда таҳsil оlayotgan tengdoshlaringiz ham yaqinda ajoyib tantana uyushtirishdi. Hamma maktablarda bo'lgani kabi bu yerda ham «So'nggi qo'ng'iroq» ovozi barchani bayramona bezatilgan

kattakon zalga

ch o r l a d i .

M a k t a b i m i z

rahbari Gulnora

opa Mamontova

so'z olib,

o'quvchilarini,

ayniqsa, bitiruvchi

sinf o'quvchilarini

katta hayotga

qo'yayotgan

m u s t a q i l

qadamlari bilan

samimiy qutladilar.

Eng ilg'or

o'quvchilarga «Sog'lom avlod

jamg'armasi» tomonidan ajratilgan

sovг'a-salomlarni topshirdilar.

Nogiron bolalarni davolash

markazining rahbari

V.Sh.Shomahmudov ham

bolajonlarni qizg'in qutlab, «UMR»

markazining sovg'alari va

shirinliklarini ularshib chiqdī.

Sahnaga bitiruvchi

sinf o'quvchilari chiqishganda eng

hayajonli damlar boshlandi.

Ustozlariga bag'ishlangan kuy va

qo'shiqlar, she'rlar ijro etishdi,

mehnat darslarida o'z qo'llari bilan

yasagan buyumlari, esdalik

sovг'alarini taqdim etishdi. Ularning

yurakdan chiqayotgan samimiy

so'zlarini tinglab, bizning ham

ko'zimizda yosh xalqalandi. Bitiruvchilar «Nokerak buyumlar» muzeini tashkil qilib, u yerda shpargalkalar, bir-birlari bilan arazlashib qolishganda yozgan xatlari, ishqiy maktublarini qoldirishdi.

Navbat kichkintoylarga ham yetib keldi. 1-sinf o'quvchilari bitiruvchi aka-opalarini samimiy qutlab, ularni 8 yildan so'ng bo'ladigan o'zlarining bitiruv kechalariga taklif etib,



taklifnomalar ularshishdi.

So'nggi so'z bitiruvchilar uchun xuddi onalaridek bo'lib qolgan mehribon sinf rahbarlari Ye.A. Gayvoronskayaga berildi. Ustoz shogirdlariga chin dildan oq yo'l tiladi. Qaldirg'ochlar misoli maktabimizdan uchirma bo'layotgan o'g'il-qizlar: «Mening eng baxtiyor onlarim bag'rida o'tgan qadrdon maktabim, yaxshi qol! So'nggi qo'ng'iroq yanada jo'shqinroq jarangla! Assalom mustaqil hayot!» deya biz bilan xayrashishdi. O'z navbatida biz ham bitiruvchilarimizga oldindagi maktab hamda oliygohlarga kirish imtihonlarida omadlar tiladik.

*Luiza ERGASHEVA,  
Toshkent viloyati, Chirchiq  
shahridagi 23 - yordamchi  
maktab o'qituvchisi.*

President asarlarini o'rzanamiz

## MILLIY ISTIQLOL G'OYASI: ASOSIY TUSHUNCHА VA TAMOYILLAR

(Davomi. Boshi o'tgan  
sonlarda)

Yigirma yildan buyon davom etib kelayotgan harbiy mojarolar oqibatida umuminsoniy sivilizatsiyadan uzilib qolgan Afg'oniston hududi xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm, qurol-yarog' va giyohvand moddalarning noqonuniy savdosi o'chog'i bo'lib qoldi. Bu esa turli zararli g'oyalarning terrorchilik, tahdid va tahlika yo'li bilan butun mintaqaga yoyilish xavfini tug'dirmoqda.

Mustaqil taraqqiyot, erkin va farovon hayotga bo'lgan ishonch-e'tiqodni mustahkamlash yo'lida xavf-xatarlarning oldini olish uchun muttasil ogoh bo'lib yashash, birgalikda kurash olib borish mintaqaga xalqlari uchun hayotiy zaruratga aylanib qoldi.

Shu ma'noda, O'zbekiston tomonidan olg'a surilgan «Turkiston — umumiyy uyimiz» g'oyasi, Afg'onistondagi harbiy mojarolarni siyosiy yo'l bilan hal etishga qaratilgan «6+2» guruhi faoliyatini yo'lga qo'yish, Terrorchilikka qarshi xalqaro kurash markazini tashkil qilish borasidagi tashabbuslar, mintaqal mamlakatlari o'rtasidagi integratsiya jarayonlarini kuchaytirish yuzasidan olib borilayotgan sa'y-harakatlar muhim ahamiyat kasb etadi.

(Davomi bor).

# XATLAR TE GIRMONI



## BOBOM, BUVIM - DAVLATIM

Yaqinda kollejimizda «Kamolot» ijtimoiy yoshlar harakati tashabbusi bilan «Qariyalarni qadrlash yili» ga bag'ishlangan ajoyib tadbir bo'lib o'tdi. Unga mahallalarda yashovchi yolg'iz va nochor qariyalarni, shuningdek, barmoq bilan sanarli darajada qolgan urush faxriylarini taklif qildik. Mening bobom Sag'dulla ota ham urushda qatnashganlar. 20 yoshli navqiron chog'larida uch marotaba yaralanib, II-guruh nogironi bo'lib qolganlar. Olisda yashamaganlarida tadbirimizga ularni ham albatta taklif qilgan bo'lardik...

Buvam va buvijonim Manzuraxon ayalar Bo'stonliq tumanidagi Sijjak qishlog'ida yashaydilar. Ularning o'n nafar farzandlari bo'lib, hozirgi kunda 32 nevara, 20 nafar evaraning mehribon, shirinso'z buva-yu buvilaridirlar. Yo'lning biroz o'lisligi, otam-onamning ish bilan, o'zimning o'qishlar bilan bandligimiz bois ularnikiga borishga har doim ham fursat topavermasdik. Mana, o'qishlar tugab, yozgi ta'tilga ham chiqib oldim, endi ularning mehribon bag'irlariga oshiqaman. Buvijonimning purma'no ertagu rivoyatlarini, bobomning urush xotiralarini jon-qulog'im bilan tinglayman.

Nodira ERGASHEVA,  
Mirabod tumanidagi  
6 - Biznes maktabi  
o'quvchisi.

Yaqindagina onajonim meni bog'chaga yetaklab olib borardilar. Undan keyin maktabga, 1- sinfga olib borganlari ham kechagidek yodimda.

Bugun esa **XAYR DILKASH** 9 yil ta'lim-tarbiya olgan jonajon maktabim, mehribon ustozlarim, dilkash sinfdoshlarim bilan xayrlashayapman.

Ustozlar bizga bilim berish bilan birga cheksiz mehr ham berdilar. O'z onamizdek bag'rilariga bosdilar. Buning uchun ulardan cheksiz

minnatdorman.

Bag'ri keng maktabim, mehri daryo ustozlarim.

Sizlarning

b erg a n

saboqlaringiz hamisha yodimdadir. Ishonchingizni oqlashga, sizlar istagandek inson bo'lib yetishishga so'z beraman.

**Dildora XOLMUHAMEDOVA,**  
**Poytaxtimizdagi Chilonzor**  
**tumanining Shotursun G'ulomov**  
**nomli 114- maktabning**  
**9- «A» sinf bitiruvchisi.**

## USTOZIMIZ G'OLIB BO'LDILAR

Ko'pchilik tengdoshlarimiz musiqa faniga, ikkinchi darajali fan, deya pastroq nazar bilan qarashadi. Men tahsil olayotgan Murod Hamroyev nomli arab tiliga ixtisoslashgan mакtabda esa musiqa faniga juda katta ahamiyat beriladi.



Yaqinda maktabimizda «Uzluksiz ta'limni takomillashtirish» mavzusida seminar-kengash bo'lib o'tdi. Maktab haqida ma'lumot berish, namunali fan xonasi, dars o'tish texnologiyasi bilan tanishish mavzusida trening, «Hech kimga bermaymiz seni, O'zbekiston!» mavzusidagi o'quvchilarning badiiy chiqishlari namoyish etildi.

RTMning ijtimoiy gumanitar yo'nalishlar bo'yicha bo'lim boshlig'i muovini M.J.Abralova ma'ruza qilib, seminarni ochib berdilar. Maktabimiz direktori S.M.Azizxo'jayeva seminar qatnashchilariga maktabimiz haqida ma'lumot berib, ustozlarimizning dars o'tish uslubi haqida ham gapirib berdilar. Namunali fan xonasi, hamda

dars o'tish uslubi bilan oliy toifali musiqa o'qituvchisi O.A.Po'latova tanishtirdilar. Amalga oshirayotgan ibratli ishlarining misoli sifatida 4-7 - sinflarning musiqa fani dasturlari asosida testlar, anketa savollari, sinfimizdagi musiqa faniga oid bo'lgan o'quv ko'rgazmali qurollari va

v o s i t a l a r i n i g ro'yhatini taqdim etdilar. Ustozimiz S. Mirhamidovaning «Ma'naviyat ildizlari» kitobi hamda musiqa xonasining fotosuratlarini yig'ilganlar katta qiziqish bilan tomosha qilishdi. M. Rahmatullayeva h a m d a

O.Po'latovalar tayyorlagan badiiy chiqishlar kechaga ko'tarinkilik baxsh etdi. O'quvchilar ijrosidagi kuy va qo'shiqlar, ayniqsa, «Soqinomai bayot» va «Ey, sarviravon» qo'shiqlarini maromiga yetkazib ijro etgan qizlarni qarsaklar bilan olqishlab, ustozlari mehnati va mahoratiga yana bir bor tan berishdi.

Fursatdan foydalanib, Respublika miqyosida o'tkazilgan «Namunali fan xonasi» tanlovida 1-o'rin sohibi bo'lgan ustozimiz Orzuxon opa Po'latovani biz ham samimiy qutlaymiz.

**Nigora ESHIMOVA,**  
**Toshkent shahar, Sobir Rahimov**  
**tumanidagi 29 - maktabning**  
**7 - «V» sinf o'quvchisi.**

## «ABC» BAYRAMI

Ta'tilga chiqishimiz arafasida o'lgan bilimlarimizni amalda sinab ko'rish maqsadida ajoyib bayram o'tkazdik. Unda hamma o'quvchilar ingliz tilida so'zlashishlari darkor edi. Sahna ko'rinishini aytmaysizmi? Unda she'r, qo'shiq, maqollar ifodali yangradi. O'zbek xalq ertagi-yu dramalari ingliz tilida namoyish etildi. Hatto, ta'til davomida qilmoqchi bo'lgan rejalarimizni ham inglizcha so'zlab berdik. Ta'til rejasining rangi o'qituvchilarimizda katta qiziqish uyg'otdi.

Qalbimizdag'i orzuniyat, kelajak orzusi bizni yetuklikka yetaklagandek bo'ldi. O'zimizni yaxshi kasb egasidek tasavvur etdik. Men bunday tadbirlar tez-tez bo'lishini istardim.

*Sohiba*

**FAYZULLAYEVA,**  
*Buxoro viloyati,*  
**Buxoro tumanidagi**  
**15-o'rta maktabning**  
**5-sinf o'quvchisi.**

Birinchi sinfga ilk qadam qo'yan kunim men uchun nihoyatda hayajonli bo'lgan edi. Sinfga birinchi ustozim kirib kelishlari bilan ko'z oldimda o'zim bilmagan holda bog'chadagi tarbiyachim Roza opa namoyon bo'ldilar. Bu hol bir necha marta takrorlandi. Shunda ularning biz bilan yig'lab xayrashganlari yodimga tushdi va opajonimni nihoyatda sog'inganimni tushundim...

Bir kuni oyim bilan birga bog'chamiz yonidan o'tib ketayotgandik, men ularga Roza opamni sog'inganimni

aytdim. Oyim bo'lsalar: «Yur qizim, bog'cha opangni ko'rib chiqamiz», dedilar. Chopqillagancha bog'cha darvozasidan kirdim. Roza opamni tarbiyachilar

opamni yana ikki marotabagina uchratdim, xolos. Qidirganimda, bu yerlardan ko'chib ketdi, deyishdi. Izlab topolmagan bo'lsam ham hali hanuz uchratishdan umidvorman. Roza opamning mehrga boy qalbi, go'zal chehrasi, yosh bo'lishiga qaramay ma'yus boqib turuvchi ko'zlar mening ko'zim oldimdan va xayolimdan o'chmaydi. Sizni juda sog'inganman, opajon.

*Nargiza*

**JO'RABOYEVA,**  
*Toshkent viloyati,*  
**Chinoz shahridagi**  
**40 - maktabning**

**9 - «A» sinf o'quvchisi.**

## HAMON SIZNI SOG'TINAMAN


xonasidan topdim. Ular menga peshvoz chiqarkanlar, beixiyor ko'zlar yoshlandi. Men ham o'zimni tuta olmay, yig'lab yubordim. Opam meni quchoqlagancha yuz-ko'zlaridan o'par va hadeb «Bularga o'rganib qolgan ekanman, mehrim bo'lakcha ekan», deb takrorlardilar...

Mana, oradan 10 yil vaqt o'tdi. Keyinroq bog'cha

## DUNYO QARIYALARI HAM QADRANSI

Ta'tilga chiqdigu O'zbekistonni qo'msab qoldik. Nega deysizmi? Axir to'rt yil o'z Vatanidan yiroqda yashash oson emasda. Mariya buvijonimning sog'liklari yomonlashgani tufayli Sardor tog'am va oyijonim bilan birga Belorusga kelgandik. Hozir buvum o'zlarini yaxshi his qilyaptilar. Ularga nafim tekkanidan xursandman. Yozda bu yerlar juda ham chiroqli bo'ladi. O'rmonlari maymunjonu qo'ziqorinlarga to'lib ketadi. Oilamiz, dugonalarim bilan birga o'rmondan shifobaxsh o'simliklar, chiroqli gullar terib, buvijonimga taqdim etaman.

Bu yil Prezidentimiz O'zbekistonda



## VATANGA MUNOSIB FARZAND BO'LAYLIK

Mana, hammamiz orziqib kutgan yoz fasli ham kirib keldi. Sevimli faslimiz bizning bayramimiz bilan boshlanishi nur ustiga a'lo nur. Alisher Navoiy nomidagi Milliy bog'da bo'lib o'tgan bayram tantanalarida Shayxontohur tumanidagi barcha maktablarning o'quvchilari ishtirok etdilar. Biz-bog'dagi turli o'yinlarni o'ynab, arg'imchoq va charxpalaklarda uchib, miriqdik. Bayram so'ngida barcha bolajonlarni palov bilan siylashdi...

Tantana yurtimizda biz bolajonlarga ko'rsatilayotgan g'amho'rliklarning yana bir yorqin misoli bo'ldi.

Aziz do'stlarim, bunday g'amxo'rliklar, shart-sharoitlardan unumli foydalanib, «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, aqli, dono va albatta baxtli bo'lishlari shart» deya kelajagimizga umid bog'layotgan yurtboshimiz ishonchlarini oqlaylik. Vatanga munosib farzand bo'laylik!

*Mahmudjon AZIMOV,*

*Shayxontohur tumanidagi 169 - maktabning 5 - sinf o'quvchisi.*

«Qariyalarni qadrlash yili» deb e'lon qildilar. Bunday buyuk izzat-hurmat qadrini men Belorusga kelib bildim. Har qalay bizning o'zbek bolalari bilan belorus bolalari tarbiyasida anchagina farq bor. Men o'z dugonalarimga O'zbekistonda o'rgangan juda ko'p muomala madaniyatini tushuntirib beraman.

Ularga bizning xushmuomalaligimiz, kattalarni hurmat qilishimiz juda ham yoqadi. Istardimki, butun dunyo bolalari o'z qariyalarni qadrlasalar. Shunda, dunyomiz tinch, osmonimiz musaffo bo'ladi.

*Maryam MIRZAYEVA,*

**Mogilyev viloyati, Bobruysk shahri,**  
**7-sinf o'quvchisi.**



## BOLALIK OSTONASI

*Inson bolalikdan boshlanadi, deyiladi. Haqqoniy fikr. Vatan esa - ostonadan. Bunisi ham to'g'ri! Bolalikning ma'naviy olami esa*

# INSON

*maktabdan shakllanadi, shunday emasmi? Albatta-da. Ostonadan xatlab o'tib, Vatan quchog'ini, mehrini, tarovatini his qilamiz.*

*Mana, o'sha maktablardan biri: bu yerda zehnli, tirishqoq, uddaburon bolalar bilim olishadi. Qaysi muktab ekan, deb qiziqayotgan bo'lsangiz, ayta qolay: bu - Qo'qon shahridagi, dovrug'i viloyat osha taralayotgan 32- muktab - litseydir.*

## QOYILMAQOM BELLASHUV

Yurtboshimizning purhikmat bir so'zleri bor: «Vatan hissi, Vatan tuyg'usi barcha narsadan qadrliroqdir». Men ishlari bilan tanishgan ushbu muktab - litseyning rahbari Rahmatjon aka Yusupov ham Vatan hissi, Vatan tuyg'usini bolalar iqtidorini puxta bilim berish orqali e'zozlab kelayotgan ustozlarimizdan.

-Muktab - litseyimizda yosh avlodga ta'lif-tarbiya berish, boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarga, milliy qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga muhabbat, Istiqlol g'oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash, ma'naviy boy, ahloqan yetuk, intellektual rivojlangan yuqori bilimli, jismonan baquvvat, sog'lom, har tomonlama kamol topgan shaxsni voyaga yetkazishga yo'naltirilgan, Kadrlar tayyorlash

## Prezident bolalari

Milliy dasturini hayotga tadbiq etish borasida namunali ishlar amalga oshirilmoqda, -deydi Rahmatjon aka.

*-Axborotingiz o'ta rasmiy bo'ldi, -deyman u kishiga kulimsirab, -Soddaroq tarzda aytsak-chi?*

-Soddasi shu - Biz Vatanimiz kelajagi uchun yonib yashaydigan bilimdonlarni tayyorlayapmiz.

# BAXT

*-Ana, bo'lar ekan-ku!  
Endi amaliy ishlardan  
so'zlab bersangiz?*

# UCHUN

## XAMIR UCHIDAN PATIR

Rahmatjon akaning aytishicha, yangi o'quv yili boshidayoq muktabda O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 10 yilliga bag'ishlangan tantanali kecha o'tkazilibdi. Kechada shahar hokimligidan Mavludaxon Xo'jayeva, shahar xalq ta'limi bo'limidan Salomatxon Norqo'ziyeva, mehnat faxriylaridan A. Abdurasulov va ko'pchilik ota-onalar ishtirok etishibdi. Bu - ko'ngillarni Vatan tuyg'usiga boyituvchi tadbir bo'libdi. Tadbir bo'lganda ham tadbirlarning eng zo'ri! Umuman bu yerda barcha ma'naviy - ma'rifiy tadbirlar a'lo darajada o'tkazilar ekan. Men buni o'quvchilar - zukko bilimdonlardan eshitib, og'zim lang ochilib qoldi.

## 10 - «FIZIKA»GA - 10 BALL

Men ham shunday tadbirlardan birida bevosita ishtirok etdim. Lekin super tadbir bo'ldi-da, o'ziyam! Navoiyxonlikka bag'ishlangan «Quvnoqlar va zukkolar» bellashuvi.

Yana deng meni hay'at a'zoligiga saylashsa bo'ladimi! Rosa peshonam terlab o'tirdim... Yo'q, bunday ishonchga sazovor bo'lganimdan emas, xolis fikr bildirish qiyin ekanligini his qilganimdan!.. Axir bellashuvchi tomonlar 10 - «Fizika» va 10 - «A» sinflari ham kishini hayratga soladigan darajada qoyilmaqom tayyorgarlik ko'rishgan ekan-da!

Ularga shunaqayam havasim keldiki, asti qo'yaverasiz! 10 - «Fizika» sinfi shiddatli hamda ustasi farang ekan. 10 - «A» sinfi ham bosiq, ham o'ziga xos «ass»! Bir-biriga mos,

gap yo'q... Lekin, baribir, 10 - «Fizika» sinfi g'olib deb topildi - hisobda ikki bal ortiq baho olishdi. Bo'ldi olqish, bo'ldi qarsak...

## OLIMPIADA PESHQADAMLARI

Farg'ona viloyatida ta'lif jarayonini mukammallashtirishga, o'quvchilarni oliy o'quv yurtlariga tayyorlashga alohida e'tibor berayotgan muktablar talaygina. Ularning o'quvchilari testda yuqori natijalarga erishmoqda. Masalan, Uchko'rik tumanidagi 12 - muktabning 8 nafar o'quvchisi kimyo fanidan, Furqat tumanidagi 16 -, 23 - muktablarning 9 nafar o'quvchisi ingliz tili va biologiya fanlaridan viloyat olimpiadasida g'olib chiqishibdi. Men kelgusida ular haqida ham maqola yozishni ko'ngilga tugib qo'ydim.

«32 - muktab - litsey-chi?», deysizmi? U erishgan natijalar esa boshqalarnikidan ham a'lo! Isboti: biz hikoyasini boshlagan muktab-litseyning (e'tibor bering-a) 13 nafar o'quvchisi matematika testlaridan yuqori natijalarga erishibdi! «E,

qoyil!» deb yubordim ichimda. O'tgan o'quv yilida bitirgan 78 nafar o'quvchining 69 tasi oliy o'quv yurtlariga bemalol kirib olganliklarining boisi ham ana shunda-da! Qolganlari esa litsey va kollejlar bag'rida javlon urishmoqda ekan. Ana sizga namunali bilim maskani!

### ILDIZ NIMA DEYDI?

Bu muvaffaqiyatlarning ildizi qayerda, bilasizmi? Shu maktab - litseyda-da! Unda berilayotgan puxta bilimda! Quloq tutaman: haligi - «Quvnoqlar va zukkolar» bellashuviga qadar bu yerda fanlar bo'yicha olimpiada o'tkazilibdi. Talab esa judayam kuchli! Zuvalasi

kuchliroq bo'lsa ajab emas, nima dedingiz?

Akmaljonning tengdoshlari ham undan qolishmaydi. Shahar olimpiadasida yuqori natijalarga erishgan 19 nafar

**Vatanni Vatan qilish  
tuyg'usi, mas'uliyati,  
taqdir taqozosi o'zbek  
xalqining hozirgi  
avlodi zimmasiga  
tushadi.**

*Islom KARIMOV.*

o'quvchi buning yorqin isbotidir. Endi ular viloyat olimpiadasida ona shaharlari sharafini ko'krak kerib himoya qilishadi. Ularning ba'zilarini sanab

Abduazizova va boshqa o'qituvchilarga ham tashakkur aytamiz. Kelgusida ularning ishonchini, albatta, oqlaymiz.

Husniddin Sharafuddinov. Do'stimiz sal hazilkashroq ekan. Lekin fikrlari mazmunli: «Kindik qoni to'kilgan ona Vatan kelajagi uchun qayg'urish har bir avlod uchun buyuk fazilatdir. Zero, bu Vatan bizgacha otabobolarimizning ne-ne zahmatlari evaziga, qanchadan-qancha qurbanlar evaziga bizgacha saqlanib qolgan.

Hozirgi avlod o'z Vatani uchun, uning rivojlangan mamlakatlar qatoriga olib chiqish uchun mukammal bilim egalari bo'lib yetishmog'i lozim. Buning uchun yoshlarga, iqtidorli yoshlarga yanada kuchliroq e'tibor bermoq kerak».

Xuddi shunday so'zlarni olimpiada peshqadamlari Hayot Ne'matjonov, Saidolim Umarov, Muqaddas Hasanova, Ulug'bek Shokirov, Sayyora Dadajonovalar ham aytishlari mumkin. Chunki ular hammaslak, hamfikr-da!

### RAHMAT AKAGA RAHMAT!

Maktab - litsey rahbari Rahmatjon aka Yusupov sadoqatli murabbiy. U kishini hokim o'rindbosarligiga tayinlashganda ham ikki yildan ortiq ishlashga yuragi chidamagan. Baribir bolalar mehri uni o'ziga tortgan! Haqiqiy bolajon ustoz shunaqa bo'ladi-da! Fidoyilik namunasi esa - o'quvchilarning yuksak parvozida. Bundan xabardor bo'ldingiz.

Maktab - litsey parvozi Vatanimiz sarhadini egallayversin, Rahmatjon aka!

*Sobir JABBOR.*

# TUG'ILADI

pishiq bilimdonlar o'zaro kuch sinashibdi. Natija esa - o'zingiz hozir bilgan yutuqlarda.

Maktab-litseyning yutuqlari ko'p. Yaqinda o'tkazilgan shahar «Tabiat in'omlari» ko'rigida faxrli 1 - o'rinni egallabdi. Bu ham o'quvchilarning tirishqoqligidan dalolat, shunday emasmi?!

### «FIZIKA QIROLI»

Maktab - litsey o'quvchisi Akmal Asqarov ana shunday e'tirofga sazovor bo'libdi. Qanday qilib, deysizmi? Test savollari bo'yicha tengdoshlari bilan bellashibdi-da! Maktab - litseyda unga yetadigani bo'lmabdi. Shunda men unga ta'lif bergan fizika fani o'qituvchisi Mahfuza opa Do'stmatovaga «yuz ofarin, ming ofarin!» degim keldi. Albatta, Akmaljonning ham ustoziga nisbatan ehtiromi bundan ham

o'tsam, maylimi?

### QIROLLAR VA QIROLICHALAR

Zo'r sarlavha qo'yibmanmi? Rosti ham shu-da! Tanishib qo'ying: Aziz Tolipov. Azizjon mulohaza yuritishda «yetti o'Ichab bir kesadigan»lar xilidan. Men u bilan qisqa fursatl suhbatda bo'ldim.

-Biz yoshtar,- dedi u , -bugungi kunda ozod va obod Vatanimiz qo'ynida ta'lif olyapmiz. Shu yo'lda bizga ustozlarimiz ko'maklashishmoqda. Biz ham keljakda yaxshi inson bo'lishga, O'zbekiston Respublikasining dovrug'ini olamga yoyishga o'z hissamizni qo'shamiz. Vatanimizning tinchligi, farovonligi, porloq kelajagi yo'lida fidoyilik bilan mehnat qilishga tayyormiz. Ustozlarimizdan - N. Baynazarov, M. Do'stmatova, Sh.



Bundan o'n yillar muqaddam muhandislar Leonardo da Vincining chizmalari bo'yicha qurilmalar yaratishga urinib ko'rishgandi. Ana shu tariqa XV asrda «tug'ilgan» vertolyot, planyor, prujinali mexanizmga ega bo'lgan va o'z-o'zidan harakatlanuvchi dastlabki mashina, parashut hamda qismlari bir-birining ichiga kiradigan o't o'chirish narvoni XX asrga yetib keldi.

Florensiyani dahshatli darajada suv bosdi. Kelgisida shaharni bu tabiiy ofatdan butkul xalos qilish yo'lida bosh qotirayotgan mutaxassislar Leonardoning aynan shu haqdagi loyihasini topib olishdi. Bu ham bo'lsa XV asrning XX asrga beminnat tuhfasi edi...

Leonardo haqida juda ko'plab kitoblar yozilgan, suratlari Sankt-Peterburg, London, Parij va dunyoning boshqa talay shaharlari muzeylarida turibdi. Shu kitoblarni o'qisangiz, uning mo'yqalamiga mansub suratlarni ko'rsangiz, tabiat bu odamga naqadar saxiylik bilan qancha iste'dod ato etganini ko'rib, hayratdan yoqa ushlamay ilojingiz yo'q. Oddiy kishilarning behisobligi go'yo tabiatning me'dasiga tekkandek. Uni hatto yuksak iqtidorli, o'zining dahosini tasviriy san'at yo mexanikaga, musiqa yoki jango var san'atga baxshida etgan noyob insonlar ham qoniqtirmagandek. Tabiat mana shu nodir qobiliyatlarning barini bir odamda jamlab, unga shu qadar serqirra mukammallik ato etdiki, bu iste'dodlar o'nlab odamlarga yetib ortar va ularning har biri tarixda qolishi shubhasiz edi. Leonardo da Vinci ana shunday noyob baxt berilgan inson bo'ldi.

Uning birinchi biografi shunday yozgandi: «Har qanday maqtovdan yuqori bo'lgan tanasining mukammal go'zalligini qo'ya turaylik, uning har bir harakati nafosatu nazokatga to'lug' edi. Iste'dod-iqtidori shu qadar boy

## ABADIYAT ARDOQLAGAN ALLOMALAR

*Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi*

ediki, yo'lida uchragan har qanday to'siqni osongina yengib ketardi. Uning

**Bilimim shu yerga yetib keldikim,  
Bilimsizligimni endi tushundim.**

*Abu Shukur Balxiy*

ulkan jismoniy kuchi epchillik bilan uyg'unlashib ketgan, aql-idroki va jasurligi esa qandaydir shohona va oliyjanob fe'l-atvor bilan alohida ajralib turardi...»

G'arb uyg'onish davrining buyuk

## QIROLNING QO'LIDA JON BERGAN DAHO

*Nazariya - sarkardayu amaliyot askardir*

namoyondasi Leonardo da Vinci ulug' bobomiz Alisher Navoiyning zamondoshi bo'lgan. Ul zotdan 11 yil keyin tug'ilib, 18 yil keyin olamdan o'tgan. Alisher Navoiy o'rta asrlar Sharqi an'analariga ko'ra ijtimoiy, adabiy - badiiy, insonparvarlik sohalarida qanchalik serqirra va benazir bo'lsalar, Leonardo da Vinci Renessans davri Yevropasi an'analariga binoan aniq fanlar bo'yicha beqiyos edi.

Zamondoshlarining xotiralariga ko'ra, Leonardo mana kim bo'lgan: Jamiki musobaqalar va turnirlarning qatnashchisi, ajoyib suzuvchi, qilichboz, mohir chavandoz, hazilkash, so'z ustasi va mahoratlari askiyachi, bilimdon notiq, seriftifot suhbatdosh, raqqos, xonanda, shoir, musiqachi va musiqa asboblari ustasi, iqtidorli musavvir va san'at nazariyotchisi, matematik, mexanik, astronom, geolog, botanik, anatom, fiziolog, harbiy muhandis, o'z davridan ancha ilgarilab ketgan moddiyunchi va hokazo.

Shu o'rinda beixtiyor yana bir tarixiy

qiyyos yodga tushadi. Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino bobolarimiz ham bundan ming yil muqaddam

o'z davridagi jamiki fanlarni egallagan qomusiy ilm sohiblari edi. Masalan, Beruniyning hayoti va ijodini chuqur o'rgangan sharqshunos olim V.Bartold alloma ijodiga baho berar ekan: «Beruniy shug'ullanmagan sohalarini sanab chiqish osonroq», deya xulosa qiladi. Leonardo da Vinci buyuk bobomizdan besh asr keyin yashab o'tganini e'tiborga olsak, uni Yevropa Renessansining Beruniysi deb atash mumkin bo'lar ehtimol. G'arb olami

Leonardoga o'xshagan daholar ming yilda bir marta dunyoga keladi deb hisoblasa, Beruniy bobomiz misolida bu faraz allaqachonlar haqiqatga aylangani isbot talab etmasa kerak, hoynahoy.

1452 yil 15 aprelda oddiy dehqon qizi, yosh va go'zal Katarina o'g'il ko'rdi va unga Leonardo deb ism qo'yishdi. Ko'p o'tmay onasi vafot etgach, otasi - florensiyalik notarius Pero da Vinci nikohsiz tug'ilgan o'g'lini o'z uyiga olib kelib, tarbiyalay boshladi. Bolaning bir yo'la uch o'gay onasi bo'lib, keyingi ikkitasi o'smir Leonardo bilan qariyb tengqur edi. Hammalari uni yaxshi ko'rib, erkalatib o'stirishdi, ya'ni u odamga aqalli bolalik paytida zarur bo'lgan mehrmuruvvatdan benasib qolgani yo'q. Leonardo 14 yoshida toskaniyalik buyuk haykaltarosh va musavvir Verokkioga shogird bo'ldi, 20 yoshda esa mustaqil ishlovchi usta deb tan olindiki, haqiqatan ham bu paytgakelib, u o'ziga xos musavvir bo'lib yetishgandi.

Leonardo bir umr betinim ishladi, kundalik turmushda biz dam olish, hordiq chiqarish deb tushungan narsa nimaligini hatto tasavvur ham qila olmasdi. Bir ishdan boshqasiga o'tishning o'zi uning uchun dam olish

edi. U hech qachon, hech qayerda ijod qilishdan bo'shamadi.

Iso payg'ambarning hayotiga oid bir asarini yakunlashni juda cho'zib yuborgani yuzasidan ta'na qilishganida bu ta'nalar noo'rinligini, u faqat shu ish bilan bandligini ta'kidlagan.

-Lekin rohiblar aytishicha, ustaxonada bir necha kunlab ko'rinas ekansan-ku! - e'tiroz bildirdi milanlik gersog.

-Janobi oliylariga yaxshi ma'lumki, - deya javob qildi Leonardo, - butun dunyoga taniqli buyuk ablah Iudaning yuz qiyofasini chizishim qolgan, xolos. Binobarin, uning manfur basharasida beqiyos ifloslik, murtadlik aks etib turishi uchun shunga yarasha bir andoza topishim kerak. Shu sababli ham bir yil bo'ldimi, oshdimi, har kuni ertalab va kechqurun Borgettoni kezib yuraman, chunki janobi oliylariga yaxshi ma'lum bo'lganidek, poytaxtimizdagi firibgarlaru lo'ttibozlarning bari o'sha yerda yashaydi. Lekin shu paytgacha meni qoniqtira oladigan bironta ham razil basharani uchratganim yo'q. Shunaqasini topdim deguncha suratni bir kundayoq yakunlab olaman...

U mana shu tarzda ishlardi. Dastlabki qarashda taqdir suygan bu daho hamma narsaga osongina erishgandek tuyuladi. Aslida bunday emas, u doimo ikkilish, shubha-gumonlar qurshovida yashardi. Suratga qo'l urishdan avval o'nlab eskizlaru chizgilar yaratardi. «Agar ish yengil ko'chsa, - deb o'rgatardi u shogirdlariga, - bilingki, rassom hali g'o'r va haqiqiy mahoratni tasavvur qilolmaydi».

Yana bir qator asarlarining beqiyos jozibasi musavvir Leonardoga shu qadar olamshumul shuhrat keltirdiki, bu shuhrat asrlar osha yanada yorqinroq porlamoqda. Mazkur asarlar iste'dod ramziga (holbuki iste'dodda ramz yo'q) aylanib qoldi. Uning


suratlarini hamma biladi. Ammo musavvirning endilikda yo'qolib ketgan boshqa asarlaridan faqat nusxalaru zamondoshlarining hayratomuz guvohliklarigina qolganini hamma ham bilavermaydi.

Leonardo o'smirlik paytida bir

**Buyuk kishilar olmos yanglig' noyob va shu qadar serjilodir.**

*Sharq naqli*

yashikka qo'ng'izlar, chigirkalar, ilonlar, sichqonlar va kaltakesaklarni to'plagan hamda ularga qarab turib, shunaqangi bir xayoliy mahluqning suratini chizgandiki, bir gal ustaxonaga



kirib, uni ko'rib qolgan otasi azbaroyi qo'rqqanidan orqasiga qaramay qochgan. Bu surat yo'q hozir.

San'at tarixchisi Vazari kartonga ishlangan «Odam Ato va Momo Havoning jannatdan quvilishi» nomli mashhur asar haqida hikoya qilarkan, «bu qadar muakkallikka hech kim erishmagan» deya baho beradi. Bu asar ham yo'qolgan.

Florensiya shahri kengashining katta zalini bezash uchun yirik asarning chizmasi ustida musavvir uch yilga yaqin ish olib boradi. Bu sharafga noil bo'lish uchun o'z davrining ikki buyuk rassomi: 52 yoshli Leonardo bilan 30 yoshli Mikelanjelo da'vogar edi. Zamondoshlari ulardan qaysi birini afzal ko'rishni bilolmay, boshlari qotgan. Afsuski, har ikkala asar ham saqlanib qolmagan.

Qirol Fransisk I va qirolicha Klavdiyaning portretlari, «Haykaltaroshlik afzalmi yoki tasviriy san'at?» nomli qo'lyozma yo'qolgan. O'nlab suratlar saqlanib qolmagan. Milanlik gersog Franchesko Sforsning otliq haykali andozasi ustida Leonardo naq 16 yil ter to'kkon edi. Bu noyob asarni shoirlar kuylashgan, tomosha qilish uchun odamlar Milanga Italiyaning turli burchaklaridan kelishar edi. Toskaniyalik arbaletchilar o'qqa tutishganidan keyin shu mo'jiza ham bu dunyoga sig'madi...

Nega endi shu o'rinda yo'qolgan suratlaru haykallar xususida so'z ochdik? Gap shundaki,

Leonardo tasviriy san'atni boshqa barcha mashg'ulotlardan ustun qo'yardi va shu boisdandir umri poyonida avvalambor buyuk musavvir sifatida izzat-obro' topdi. Agar tasviriy san'at sohasida atigi o'ntacha surati bizgacha yetib kelgan, bu jihatdan ijodiy merosi ulkan yo'qotishlarga uchragan bo'lsa, uning ilmiy va texnik ijodiyot sohalaridagi yo'qotishlari qanchalik katta bo'lgan ekan?

Leonardo da Vinchining fan va texnikaga qo'shgan hissasidan qancha qismi yo'qolib ketgan bo'lmasin, saqlanib qolgan ishlarining o'zi ham aql bovar qilmas darajada ko'p! Ko'hna Sharqning buyuk allomalaridan biri Umar Hayyom matematikaga oid qo'lyozmalarining hoshiyasiga ruboyilar bitgan va tarixda avvalambor shoir sifatida nom qoldirganini yaxshi bilamiz. Leonardo esa boshqa mavzudaga qo'lyozmalari hoshiyasiga matematik qaydlar bitar, o'rnii kelsa bir parcha qog'ozga chizmalar chizib ketaverardi. Masalan, bir kemaning tarhiga shamolga qarshi suza oladi deb qisqagina sharh berib o'tgan-u avlodlar buni tushunolmay boshi qotishi haqida o'ylab ham ko'rmagan.

(Davjmi bor).

*Mustaqil yurt bolalari - iqtidorlidir*

Qo'lingdan mahkam tutib, bir toza,  
g'ubordan holi, yorug' manzilga  
undayotgan pokiza qalbning  
iltijolariga ergashib ketging keladi. U  
seni ishontirgisi, o'zi ham shunga  
qattiq ishongisi keladi. Yuragi bori-  
la uyg'onib, bori-la sig'inib, ilinjda  
qo'lingdan tortadi. Ko'zing  
shunchalar narsani ko'rib turibdi.  
Ishonchszilik tisarilib, uch, to'rt,  
balki besh... qadamlar ilgariroq u  
bilan ketish istagi paydo bo'layapti.  
Dunyo keng, tirikliging rost,  
atrofingda borliq chin.

*Onajon, bu dunyo yolg'on  
dunyomas,*

*Orzular ushalmas armon  
dunyomas,*

*Sog'inchdan sarg'aygan somon  
dunyomas,*

*Qo'y yig'lama, ona,  
bag'rim tirnama.*

Yolg'onlar, armonlar, sog'inchlar  
yig'latadi. Onani  
yig'latgan,

*qalbim tirnama.*

Yig'layotgan onam, yupatayotgan,  
ko'z yoshlarini ko'rishni istamayotgan  
men. Biz bilan yaqinlik, bog'liqlik,  
uzviylik yashaydi. Kecha yig'layotgan  
men edim. Ovutgan onam, bugun esa  
yig'layotgan...

Yig'layotgan onaga bir qiz bo'lib,  
xayolot, xotiralar bosib keldi. Onaning  
yig'isi ulg'aytirib qo'yadi. Bu dam og'ir  
dam. Ko'z yoshini artish uchun kuch  
kerak. Shu kuchdan-da kuchliroq  
istakda ishontira olish...

Shohidaning «Onamga» she'rini  
yupanch berayotgan qiz bo'lib o'qidim.  
Yupanch bo'lishning o'zi katta narsa.

So'nggi paytlarda matbuot  
sahifalarida Shohida Mirzayeva  
she'rlari tez-tez ko'zga tashlanib qoldi.

-Shohida mакtabda o'qib yurgan  
kezlari faqat adabiyot yo ona tilidan  
emas, hamma fandan a'loga o'qirdi,-



Muhammad Yusuf she'rlarini ko'p  
o'qiyman, - deydi Shohida. - Yaxshi  
ko'rgan narsam - kitob.

Shohida - Ona, Vatan, do'stlik  
haqidagi she'rlarida bularga nisbatan  
muhabbatda yashashini u yoki bu  
holatda aytishga harakat qilgan.  
O'xshatishlar, tasvir, manzaralar  
yarata turib, o'quvchini o'zi  
aytmoqchi bo'lgan, o'zi bilgan  
dunyoga olib kirishga  
intiladi.

# ONAJON, TUNINGDA RUNDUZ BO'LAMAN

deydi Jizzax tumanidagi H. Olimjon  
nomli maktab o'qituvchisi Mukarram  
Salohiddinova. -Adabiyot o'qituvchisi  
bo'lganim uchun o'quvchimda shu  
fanga mehr borligini sezganman.  
Yozgan insholari sinfdoshlarinikidan  
farqlanib turardi. 2001 yil ona tilidan  
viloyat olimpiadasida birinchi o'rinni  
olgandi. 2002 yil ham faxrli o'rinni  
egalladi.

Shohida she'rlar mashq qilish  
qatorida raqs san'atiga qiziqar ekan.  
Jizzax shahrida o'tkazilgan «Iqtidorim  
- istiqbolim» ko'rik-tanlovida birinchi  
o'rinni oorganligi haqida ustozlari  
faxrlanib gapirishdi. Bugina emas,  
«Istiqlol malikalari», «Prezident asarlari  
bilimdoni» tanlovleri, san'at bayramlari  
ishtirokchisi va g'olibi bo'lishga  
erishgan. «Nutq o'stirish» markazining  
tinglovchisi. Shohidada bugunning  
yoshlarida bor bo'lgan bilimga intilish  
kuchli. Hozir u «Sayiljoyi» akademik-  
litsey talabasi. Til o'rganishga qiziqadi.  
-Hamid Olimjon, Abdulla Oripov,

Vazifasini o'qish  
va o'rganish deb  
bilgan, qalbi orzularga  
to'la qizga kimning havasi  
kelmaydi deysiz. O'zini esa Shirinka,  
Layliga, To'marisdek mardona  
ayolga havasi keladi. «O'xshagim  
keladi Bibixonimga», deydi. Ba'zi  
she'rlarida berolgan tasavvur, holat  
uning she'rlariga befarq  
qaratolmaydi.  
*Osmanni qoplab bulut,  
Tezda qovoq uyadi.  
Chaqmoqning bu jahlidan,  
Yer etagi kuyadi.*

(«Yomg'ir»)

Qo'liga qalam tutgan Shohidada  
havas, orzu bisyor;  
*Zulfiya maktabin ko'zimga surtib,  
Bir she'rxon mehrini  
dildan qozonsam.*

Shunday havas-la yashash,  
intilishni Shohidada doim ko'rgimiz  
keldi.

Fotima SHODIYEVA.

*Ibrat*

Ajdodlari, ota-bobolari tarixini, ularning qoldirgan ma'naviy merosini o'rganish, o'z xalqi madaniyati va ma'naviyatiga u yoki bu ma'noda munosib hissa qo'shish har bir inson uchun ham qarz, ham farzdir. Bu ma'suliyatni bolalar ongiga yoshlikdanoq singdira borish esa biz kattalarning, ustozu murabbiylarning vazifamiz. G'ijduvon tuman xalq ta'limi bo'limi xodimlari bu borada

maktab o'quvchilari tanlovida 2 - o'rinni egallagan bo'lsa, iqtidorli bolalar anjumanida ishtirok etgan Sohib Shukurovga ham 2 - o'rin nasib etdi. «O'zbekiston - Vatanim manim» ko'rik-tanlovida qatnashib, o'z bilimlarini sinab ko'rmoqchi bo'lgan tuman o'quvchilari 3 - o'ringa loyiq topildilar. «Shunqorlar» Respublika sport musobaqasida ham 3 - o'rin sohibi aynan shu tumanning umidli

yo'llanma olganida, uning ota-onalari, ustozlarining

guruhsda 250 nafar bola tarbiyalanar ekan. Ularga Guliston opa Xonaliyeva



quvonganini bir ko'rsangiz edi. O'quvchilar qo'lga

rahbarligidagi jonkuyar bog'cha tarbiyachilari - D. Ismoilova, Z. Murodova,

## **GUV - GUJ DOYON OSIB OTGAN G'IJDUVON**

talaygina ibratlari ishlarni amalga oshirib, viloyatda, Respublikada juda yaxshi ko'rsatkichlarga erishib kelmoqda. Tumanda iqtidorli, izlanuvchan, bilimga chanqoq o'g'il-qizlar juda ko'p. Fransuz tilidan o'tkazilgan Respublika olimpiadasida bиринчи o'rinni egallab, maktab partasidanoq talaba bo'lib qaytgan Ulug'bek Omonov, rus tilidan o'tkazilgan fan olimpiadasida to'rtinch o'rinni egallagan Aziza Latipovalar ham aynan shu tumandan...

Sohiba Safarova «Men soliqlar haqida nima bilaman?» Respublika

sportchilari bo'lishdi. «Sehrli yog'du» Respublika bolalar

kiritayotgan yaxshi natijalar, yutuq va ko'rsatgichlar



kino foto forumi ko'rik-tanlovida o'z suratlari bilan qatnashgan Umidjon Jumayev festivalning eng oliy mukofoti- gran-priga sazovor bo'lib, Avstraliyaga

zamirida tinimsiz mehnat va izlanishlar yotadi. Bu ezgu ishlarning bariga tuman Xalq ta'limi bo'limi mudiri S.Bafoev va uning hamkasblari bosh-qosh bo'lishyapti desak, mubolag'a bo'lmaydi...

Tuman xalq ta'limi bo'limi mudiri o'rinosari Gulchehra opa Boltayeva va Baxshanda opa Adizovalar hamrohligida 12 - sonli «Nastarin» nomli bolalar bog'chasida bo'lganimizda tuman kichkintoylarining ham zukkolikda aka va opalaridan qolishmasliklarining guvohi bo'ldik. Ingliz tiliga ixtisoslashtirilgan va kasbhunarga yo'naltirilgan mazkur bog'chada 15

N. Tantashova, Navro'zov, Yodgorovlar mehr bilan tarbiya berib kelyaptilar. Bog'chada muntazam faoliyat ko'rsatayotgan musiqa to'garaklari, ekologiya xonasi, tarix muzeyi, fitobar, suv havzalari yosh avlodning ham jisman ham ma'nabarkamol bo'lib ulg'ayishlarining omili bo'lyapti. Shuning uchun ham shahar Xalq ta'limi maktabgacha tarbiya bo'limi boshlig'i B. Adizova tashabbusi bilan o'tkazilayotgan «Yil tarbiyachisi», «Original ko'rgazmalar», «Sevimli o'yinchoqlar», «Yil bog'chasi» ko'rik-tanlovlarida sovrinli o'rirlarni egallab kelishyapti. Bog'chada o'tkaziladigan barcha bayramlarda ota-onalar ham faol ishtirokchilarga aylanishadi. Kulolchilik to'garagida bolalar tabiatni sevishni, mehnat qilishni o'rganadilar.

Vatani, xalqi, yurtboshisi umidlarini ro'yobga chiqarish yo'lida izlanayotgan barcha g'ijduvonlik bolalarga omad bo'lsin deymiz.

Abduhamid

ABDUG'AFFOROV.





## IMTIHONLAR AVJIDA

Mana, o'quv yili tugab, imtihonlar avjiga chiqqan palla. Maktabga otlanayotgan o'quvchilarga qarab turib havasingiz keladi. Chunki ular bir xil formada. Har bir mактабning o'z формаси mavjud. Bizning maktabda qizlar oq ko'yak qora yubka, o'g'il bolalarga oq ko'yak va qora shim kiyish majburiy. Shu boisdan ham maktabdoshlarim imtihon bahona yana o'z maktab kiyimlarini kiyishibdi. Men istardimki, bunday bayramona va bejirim forma nafaqat imtihon davrida, balki butun o'quv yili davomida kiyilsa. Axir o'quvchilik davr ham takrorlanmaydi-ku.

*Marhabo YUSUPOVA,*

*Andijon viloyati, Buloqboshi tumanidagi  
13-maktabning 10-sinf o'quvchisi.*

Shahzoda sinfning a'luchi va ilg'or o'quvchilaridan. Uning eng yaqin dugonasi Bonu esa unga nisbatan bo'shroq o'qiydi. Ular birga dars tayyorlashar, birga sayr qilishar, xullas hamma ishni birga qilishardi. Oxirgi chorak yakunlanib, imtihon arafasi edi. Aksiga olib Bonu ingliz tili kitobini yo'qotib qo'ydi.

«Hali imtihonga bir hafta bor-ku.

## BOQIBEG'AM TASHVISHI

Yaqinlashar imtihon,  
Undan qanday o'tar jon.  
Besh baho, hattoki uch,  
Olish uchun kerak kuch.

Vaqt ziq-ku, fanlar-chi ko'p,  
Tayyorlanish kerak xo'p.  
Qay biriga ulguray,  
Qaysi ishga yuguray.

Kitoblarni o'qiymi?  
Yoki nimcha to'qiymi?  
Uyni qilish orasta,  
Chopish qo'shimcha darsga.

Chiqish kerak nonga ham,  
Lekin vaqtim juda kam.

*Ma'mura AZIMOVA,  
O'zMu talabasi.*


## OQQA KO'CHIRILMAGAN SHE'RLARIM

Yaqinda maktabimizda «Iste'dod - 2002» yosh ijodkorlarning ko'rik tanlovi bo'lib o'tdi. Unda o'quvchilar adabiyot va san'at sohasidagi o'z ijod mahsullari bilan ishtirok etdilar. Adabiyot, xususan she'riyat sho'basida ish qizg'in bo'ldi. Ona tili va adabiyot ustozimiz Ozodaxon opa Ahmedova to'garagi a'zolarining she'rlari tanlovda eng yuqori o'rinni egalladi. Ikkinci o'rinni sohibasi bo'lgan Gulhayo Umarovaning qoralamalarini viloyat gazetasi xodimlari chop etish maqsadida olishdi. Mening mashqlarimni esa Respublika miqyosidagi gazetaga lozim ko'rishdi. She'rlarimni oqqa ko'chirib, sevimli nashrimga jo'natmoqchiman.

*Zilola MUSAYEVA,  
Farg'onha viloyati, Toshloq tumanidagi  
21-maktabning 10-sinf o'quvchisi.*

## UYALIB QOLDI

Ertasi ertalab Bonu Shahzodalarnikiga chiqqanida u qayergadir otlanib turgandi.  
-Qayerga ketyapsan?  
-Xolamnikiga, - deb javob berdi Shahzoda.  
-Axir imtihonga ozgina vaqt qoldi-ku, tayyorlanmaysanmi? - dedi Bonu.



-E, tayyorlanib nima qilaman, o'zi shundoq ham ingliz tilini zo'r bilaman-ku, imtihonni ham bemalol topshirib olaman. Shuning uchun xolamnikiga borib qizlari bilan mazza qilib o'ynayman. Sen tayyorlanaver, axir ingliz tilini yaxshi bilmaysan, - deb maqtanib ketdi.

-Menga kitobingni berib tur, o'zimning kitobimni yo'qotib qo'yibman.

Shahzoda xonasiga kirib, kitobini olib chiqdi.

Xolasinikida olti kun qolib ketgan Shahzoda imtihonga bir kun qolganda uyga keldi. Bonu esa shu olti kun ichida yaxshilab tayyorlandi.

Imtihon boshlandi. Sinf suv quygandek jim-jit. Hamma o'ziga berilgan test savollarini yechish bilan ovora. Nihoyat imtihon ham tugadi. Baholar o'qib eshittirildi. Bonu «5» baho oldi. U o'zida yo'q xursand edi. Shahzoda esa «4» baho olib, dugonasi oldida uyalib qoldi va kechagi gapirgan gaplari uchun uzr so'radi. Shahzoda bundan keyin hech ham maqtanmaydigan bo'ldi.

*Sanobar  
RASULMUHAMEDOVA,  
O'zMu talabasi.*

*Faqat qizlar o'qisin*

Tengdoshingiz Malika YODGOROVA «Sirdosh dugonalar»ni tasvirlabdi.

Aziz qizlarjon! Siz tobora ulg'ayib, yanada go'zallahib boryapsiz. Tanangizda ham ko'p o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Bu tabiiy hol.



Tengdoshingiz Gulhayo OQBO'TAYEVA chizgan rasmini singlisiga bag'ishlabdi.

Ushbu o'zgarishlar sizni biroz tashvishlantirgan bo'lishi mumkin. Bundan aslo qo'rwmang.

Qizlar uchun tayyorlangan «Siz haqingizda» kitobchasi barcha qiziqtirgan savollaringizga javob beradi. Kitobchani onangiz yoki opangiz bilan

birgalikda o'qing. Unda keltirilgan turli topshiriqlar b i l i m i n g i z n i mustahkamlashda yordam beradi. Noaniq narsalar tezda oydinlashadi. Havotiru tashvishlar o'zidan tarqab ketadi.

Yaqinda Respublika Ta'lif Markazida o'quvchi qizlar o'rtasida «Balog'at davri» tanloving yakuniy

O'smir qizlarga mo'ljallangan «Balog'at davri» o'quv dasturi «Sog'lom avlod uchun» Hukumatga qarashli bo'limgan xalqaro hayriya jamg'armasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, Xalq ta'limi vazirligi va «Procter End Gembl» kompaniyasi bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasining barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan Davlat dasturi doirasida o'tkazilmoqda.

Gizatulina.- Hozir esa bu fikrimdan qaytdim. Gohida biroz xavotirga tushaman.

## SIZ HAQINGIZDA

*Sizdagi tafakkur va sezgilarda ham ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ladi. Kayfiyatning tez-tez o'zgarib turishi bu davrning o'ziga xos xususiyatlaridan bo'lib, go'yo hech kim Sizni tushunishni istamayotgandek tuyuladi. To'g'ri, har bir qizda bu holat turli vaqtida va o'ziga xos sodir bo'ladi. Dugonalaringizga o'zingizda kechayotgan jarayonlar haqida so'zlab bersangiz, bu holat ularda ham sodir bo'layotganligini bilib olasiz.*

bosqichi bo'lib o'tdi. Unda Toshkent shahrida joylashgan maktab o'quvchilari qatnashdilar. Ishtirok etuvchilar hay'at a'zolariga o'zlarining chizgan rasmlarini, she'r va insholarini taqdim etdilar. Bu bilan balog'at davri haqidagi bilimlarini sinovdan o'tkazdilar.

- Ilgari o'g'il bola va qiz bola orasida hech qanday farq yo'q, deb o'ylardim,- deydi tanlovda birinchi o'rinni olgan 94-maktabning 6- «B» sinf o'quvchisi Viktoriya

Shunda «Siz haqingizda» kitobchasini o'qiyanu xavotirga o'rin yo'q deb o'layman.


296-maktabning 7- «E» sinf o'quvchisi Gulfiya XO'JANOVA chizgan rasmini «Ozodalik» deb nomlabdi.

Tanlov qatnashchilariga «Procter End Gembl» kompaniya si tomonidan esdalik sovg'alari topshirildi.

Bunday tanlovlardan qizlarni yanada ozodalikka, sarajomu sarishtalikka o'rgatib borsa ajabmas.

Yaqin kunlarda bu kabi tanlovlardan Respublikamizning chekka-shahar va qishloqlarida yashovchi qizlar o'rtasida ham o'tkazilishiga umid qilamiz.

**F.ODILOVA.**



Bu rasmni 94-maktabning 6- «B» sinf o'quvchisi Viktoriya Gizatulina chizibdi.




## Bizning to'garak

Odatdagidek, «Istiqlol umidlari» to'garagimizning navbatdagi mashg'ulotini endigina boshlagan ham edikki, xona eshigi ohista taqillab, qo'lida bir dasta qog'oz ko'targan bir kishi kirib keldi.

- Men azim shahar Samarqanddan kelyapman, - deya so'z boshladi salom-alikdan so'ng. - Qizim Nasiba gazetangizning ashaddiy muxlisi. Biror sonini ham qoldirmay, muntazam o'qib boradi. Adabiyotga, she'riyatga ixlosi balandligidanmi, ayniqsa, «Bizning to'garak» sahifasida e'lon qilinayotgan she'r, hikoya, ertak, xanda va topishmoqlarni zo'r qiziqish bilan o'qib chiqadi. «Qani endi imkoniyatim bo'lsaydi, to'garakka men ham bajonidil qatnagan bo'lardim», deydi doim. O'qishlari a'lo. Guljamol Asqarovani o'zining

ustozi deb biladi. Ulg'aygach uningdek iste'dodli shoira bo'lishni orzulaydi.



Qizimning yaqinda tug'ilgan kuni. 8 iyunda 16 bahorni qarshilaydi. Hayotidagi shunday quvonchli kunida yozganshe'rini gazetangiz sahifasida o'qisa, yanada ilhomlanib, bundan-da ko'proq, yaxshiroq yozishga intilgan bo'lardi-da, agar mumkin bo'lsa...

- Mumkin bo'Iganda qandoq, - dedik biz mammun bo'lib. - Farzandingizning qiziqish va intilishlariga bee'tibor bo'lmay, olis yo'l bosib kelganingiz uchun sizga ming rahmat! Axir, bu shunchaki o'tkinchi bir havas, deya farzandlari dilidagi orzu-umidni so'ndirayotgan ota-onalar ham yo'q emas-ku. Ajab emas, sizu bizning qo'llab-quvvatlashimiz bois Nasibaxon hayotda o'z o'rnini topib, ajoyib shoira bo'lib yetishsa...




### O'ZBEGIM

Tanda jonom, g'ururimdasan Vatan, Onam bergen oq sutimdasan Vatan. O'ylaganim, kuylaganim o'zingsan, Borlig'imda, ko'z nurimdasan Vatan.

Sen she'rimda, dostonimda borimsan, Sen ohangsan, qo'limdag'i torimsan. Ko'zimda nur, qalbimda shuur o'zing, Qatorlarda savlatimsan, norimsan.

O'g'il-qizing qadding ko'tarar bir kun, Ta'rifing ming doston bo'lar Vatanim. Hür bag'ringda yayrab-yashnab o'samiz, Senga fido qilsam arzir jon-tanim.

Nasiba ASHUROVA,  
Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumanidagi Sh. Rashidov nomli 11 - maktabning 9 - sinf o'quvchisi.



### SHUDRING

Ertalab tursam,  
Atrofga boqsam,  
Shudring tushibди.

Juda ko'p gulni,  
Yayratib dilni,  
Chiroy qo'shibdi.

Go'yo to'kar yosh,  
Va berib bardosh,  
Xursand bo'ladi.

Quyosh yuzidan,  
Chaqnoq ko'zidan,  
Asta kulađi.

Sardorjon  
ABDURASULOV,  
9 - maktabning  
4 - «V» sinf  
o'quvchisi.

Farg'ona viloyatinining Dang'ara tumanida ham adabiyotga ixlosmand o'g'il-qizlar talaygina. Ularni she'riyatga bo'lgan havas, oshuftalik tuman Bolalar va o'smirlar ijodkorlik markazi qoshidagi «Yosh qalamkash» to'garagiga birlashtirdi. Ustozlari

Oliyaxon Otaqulova rahbarligida she'r yozishning mashqini olishyapti...

She'riy mashqlarida ona-Vatanga muhabbat, sadoqat, ota-onaga hurmat hislari mujassam bo'lgan Umida Abdurahmonova, Muxayyo Xaydarova, Sardor Abdurasulovlar. «Istiqlol umidlari» to'garagimiz mehmoni bo'lishdi. Quyida ularning she'rlaridan namunalar o'qiysiz:

### TUG'YON

Men shoira emasman, ammo  
Yuragimda havas bir dunyo.  
She'riyatsiz yashay olmayman,  
U bag'riga chorlar doimo.

Magar she'rsiz bo'lganda olam,  
Tugatardi yuraklarni g'am.  
Balki shundan men unga oshno,  
Balki shu deb izlayman malham.

Balki qalbmas, she'rdir yuragim,  
Bo'yi-bastim, o'yim, tilagim.



Shu sababli men unga oshno,  
She'r yozishdan tolmas bilagim.

Umida ABDURAHMONOVA,  
5- o'rta maktabning  
7 - «V» sinf o'quvchisi.



## MENING AZIZ USTOZIM

Mening aziz ustozim,  
Onamizdek mehribon.  
Bilim, ta'lim o'rgatgan,  
So'zları olam jahon.


Gar betob bo'lib qolsam,  
Yo'qlagani kelasiz.  
Boshimizda parvona,  
Yugurasiz, yelasiz.

Siz haqingizda qancha,  
Gapirsam ham shuncha oz.  
Ustozim sizdek bo'lish,  
Nasib etsin menga ham.

*Charos*  
**ABDURAHMONOVA,**  
*Chilonzor tumanidagi*  
126 - muktabning  
2 - «A» sinf o'quvchisi.

- Shunday son topingki, uni 12 ga ko'paytirsak,
- ko'paytmadan 13 ni ayirsak, ayirmaga 55 ni qo'shsak,
- yig'indini 3 ga bo'lsak 30 soni hosil bo'lsin.

## BILMINGIZNI SINAB KORING



### AHMAD, RAHMAT, VA SHAXMAT

Ahmad bilan Rahmat shaxmat taxtasidagi xonalarni va qatorlarni sanab chiqishdi. Taxtada sakkizta qator bo'lib, har qatorda sakkiztadan xona bor ekan. Keyin taxtaga oq donalarni terib sanashdi: o'n oltita ekan. So'ng bir-birlariga savol berishdi:

- Qora donalar soni ham oqiga teng bo'lsa, ja'mi donalar nechta?
- Taxtaga barcha donalar terilsa, nechta xona bo'sh qoladi?
- Donalar soniga sakkizni qo'shib, keyin sakkizga bo'linsa, necha chiqadi?
- Ahmad va Rahmatlarning savoliga siz qanday javob berasiz?

*Gulruhbegim ODASHBOYEVA tayyorladi.*

## TOPISHMOQLAR

Qanoti qizil go'yo anor,  
Ustida qora dog'lari bor.

x x x




Mehnatlash juda chaqqón,  
Tinim bilmas hech qachon.  
Juda kichik bo'lsa-da,  
Taniydi butun jahon.

x x x




Yo'l-yo'l yirtqich,  
Tishlari qilich.

x x x




Lo'ppi va oppoq,  
Tagida qopqoq.  
Inida bor yog',  
Uyumi tog'-tog'.

x x x



O'zim mitti jonivor,  
Malla dushmanim ham bor.  
Eshit ovozim «chi-chi»,  
Mening ismimni top-chi.



*Iroda HAKIMOVA,  
Shayxontohur tumanidagi  
320 - muktab o'quvchisi.*

*Durdona AVAZOVA,  
Toshkentdagi  
85 - muktabning  
7 - «A» sinf o'quvchisi.*



Bir kuni uch yoshli  
Alisher oyisidan so'radi:  
- Oyi, oyi, dadam bizga  
kim bo'ladilar?



Qo'lida toshbaqa ushlab  
turgan Davron qiziqib  
so'radi:

- Toshbaqalar necha yil umr ko'rishadi?
- 300-400 yil.
- Men ham toshbaqa bo'lsam bo'larkan...

*Nilufar MO'MINOVA,  
272 - muktabning  
6 - «V» sinf o'quvchisi.*


## ILHOM

Har bir inson yuragida ozmi-ko'pmi turfa tuyg'ular bo'ladi. Ularni kimdir his etadi, kimdir esa yo'q. Tuyg'un his etish va uni ifodalash bu ilhomdir.


Ilhom bu bir sultanat podshosi. Uning dunyosida katta-kichik, boy-qashshoq bo'lmaydi. Hamma birdek. Bu sultanatga faqatgina yaxshi odamlargina kira oladilar va ularga bir xil nom beriladi. U ham bo'lsa ijodkor. Ilhom istagan vaqtda keladi. Uni hech kim qushdeq qafasga sololmaydi. Ilhom sultanatidagi kishilarning vazifasi u aytib turgan narsalarni qog'ozga tushirishdir...

Men ham shu sultanatga kirdim. U shunaqangi go'zalki, ta'rifiga til ojiz. Bu saroy oq marmar yoki tilla suvi yuritilgan naqshlar bilan emas, so'zlar jilosi bilan bezatilgan. Shu bois ham bu sultanatdan chiqib keta olishim gumon.

*Oynisa ESHMURODOVA,  
Samarqand viloyati, Oqtosh tumanidagi  
59 - muktab o'quvchisi.*



## BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!



1. Maxmurning g'azali.
2. Uy qismi.
3. O'g'il bolaning ismi.
- 4(1). Nota turi. 4(2). Mohir.
5. Ildiz.
6. Toshkentning qadimgi nomi.
7. Teskarisiga o'qilganda o'z mazmunini yo'qotmaydigan so'z.
8. Inson yaxshidan ibrat
9. Osmon.
10. Qizlar bezagi.

- 11(1). Sifat.
- 11(2). ... etib yondi.
12. Nota turi.
13. Bo'g'in.
14. Samolyot rusumi.
15. Xalq.
16. Belbog'.
17. Mansab.
18. Rang.

19. Oz.
  20. Nota turi.
- Tuzuvchi:**  
*Gulruhbegim SAYFIDDIN qizi, Alisher Navoiy nomidagi Respublika Nafis san'at litseyi o'quvchisi.*

Sanoat - pedagogik texnikumi tomonidan N2544  
tartibda ro'yxatga olingan Omarov Ermaxan  
Jumabayevichga 1987 yil berilgan KT N 904518  
raqamli diplom yo'qolgani munosabati bilan  
**BEKOR QILINADI**

One yurting - olin beziling  
**TONG**  
**Yulduzi**

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:  
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MATBUOT QO'MITASI, O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI, «KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOIY HARAKATI, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» XAYRIYA JAMG'ARMASI

**BOSH MUHARRIR:** Umida ABDUAZIMOVA  
**TAHRIR HAY'ATI:** Shuhrat AHMEDOV, Jamoliddin FOZILOV,  
Oynisa MUSURMONOVA, Qahramon QURONBOYEV, Feruza JALILOVA  
(Bosh muharrir o'rinnbosari), Po'lat MO'MIN, Mukarrama MURODOVA Tohir MULLABOYEV, Ergashvoy SARIQOV.

Noshir «Ijod dunyosi» nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi» nashriyot uyi kompyuter bo'limida terib sahilalandi.  
Hajmi A-3, 2 bosma taboq.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasida 46.291 nusxada ofset usulida bosildi. Korxona manzili: “Buyuk Turon” ko'chasi, 41. Buyurtma № Г-560 Gazetani Muhabbat MAHSUDOVA sahilaladi. Navbatchi: Muharrama PIRMATOVA

Ro'yxatdan o'tish tartibi № 000137  
Manzilimiz: 700129, Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Tel: 144-62-34.  
144-63-08